

O'ZBEKISTONNING XALQARO VALYUTA BOZORIGA INTEGRATSIYASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Xaqberdieva Nargiza Anvarovna

Bfa 2-kurs Moliya va moliyaviy texnologiyalar tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonning xalqaro valyuta bozoriga integratsiyasini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor valyuta bozorlarini liberallashtirish, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik, davlat obligatsiyalarini xalqaro bozorda chiqarish, valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish, xalqaro to'lov tizimlariga qo'shilish, tashqi savdoni rivojlantirish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda moliyaviy innovatsiyalarni joriy etish kabi jihatlarga qaratilgan. Ushbu yo'nalishlar O'zbekiston iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va investitsiya muhitini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, xalqaro valyuta bozori, integratsiya, valyuta liberallashtirish, moliyaviy institutlar, investitsiya, tashqi savdo, iqtisodiy islohotlar, to'lov tizimlari, obligatsiyalar, valyuta rezervlari, fintech, kripto valyutalar.

Аннотация: В данной статье будут проанализированы направления развития интеграции Узбекистана на Международный валютный рынок. Основное внимание уделяется таким аспектам, как либерализация валютных рынков, сотрудничество с международными финансовыми институтами, выпуск государственных облигаций на международном рынке, диверсификация валютных резервов, интеграция в международные платежные системы, развитие внешней торговли, осуществление экономических реформ и внедрение финансовых инноваций. Эти направления имеют важное значение для обеспечения экономической стабильности и улучшения инвестиционного климата Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекистан, Международный валютный рынок, интеграция, валютная либерализация, финансовые институты, инвестиции, внешняя торговля, экономические реформы, платежные системы, облигации, валютные резервы, финтех, криптовалюты.

Abstract: This article will analyze the directions of Uzbekistan's integration into the International currency market. The focus is on such aspects as the liberalization of foreign exchange markets, cooperation with international financial institutions, the issuance of government bonds on the international market, the diversification of foreign exchange reserves, integration into international payment systems, the development of foreign trade, the implementation of economic reforms and the introduction of financial innovations. These areas are important for ensuring economic stability and improving the investment climate in Uzbekistan.

Keywords: *Uzbekistan, International currency market, integration, currency liberalization, financial institutions, investments, foreign trade, economic reforms, payment systems, bonds, foreign exchange reserves, fintech, cryptocurrencies.*

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiy o'zgarishlar davri iqtisodiyotni rivojlantirishda moliyaviy va valyuta vositalarining roli, ahamiyati to'g'risidagi tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirganligi va tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish tizimida ularning ustuvorlikka erishganligi isbotini topgan. Davlat iqtisodiy siyosati, davlat moliyasi jahon bozorlari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarini, shuningdek, jahon raqobati qoidalarini hisobga olishi kerak.

Shu sababli ham davlat moliyasi barqarorligini ta'minlashda pul-kredit siyosatini yuksaltirish o'rinlidir. Bu boradagi ishlar haqida so'z boshlashdan oldin davlat moliyasi va pulkredit siyosati haqida aniq va to'liqroq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ayrim nazariyalarni keltirib o'tish joizdir:

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, bank sohasida olib borilgan islohatlar natijasida qisqa muddatda milliy elektron to'lovlar tizimi joriy etildi. Buning natijasida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida xo'jalik subektlari o'rtasida to'lovlar o'tkazish vaqti keskin ravishda qisqardi. Ushbu ma'lumotlar quyidagi diagrammada keltirilgan.

Bundan tashqari zaxira shakllantirish mumkin bo'lgan valyutalar (AQSh dollari, fund sterling, fransuz franki, nemis markasi, yapon yeni va boshqalar) bir tomondan kamaygan bo'lsada (butun yevropada yevro ning yagona pul birligi sifatida qabul qilinishi natijasida nemis markasi, shvetsariya franki, fransuz franki, fund sterling (qisman) kabi zaxira shakllantiradigan valyutalar muomiladan chiqib ketishi hisobiga), bir tomondan jahon moliyaviy inqirozi davrida neft narxining keskin ko'tarilishi va neftni eksport qiluvchi yirik mamlakatlarning pul birliklarining jahon bozoriga kirib kelishi natijasida jahon valyutalari ko'payib ketdi.

Konferensiyada qabul qilingan yana bir tamoyilga ko'ra butun dunyoda erkin valyuta kurslari rejimi amal qilishi kerak edi. Lekin hozirda bor-yo'g'i jahonning 23 davlatida ushbu rejim amal qilib, 100 dan ortiq davlatlarda yo qat'iy belgilangan valyuta tizimi yoki boshqariladigan rejimdagi valyuta kurslari muomilasi taminlangan.

Bu holatlarning barchasi xalqaro valyuta fondini qayta isloh qilishni talab qiladi. Chunki hozirgi kunda xalqaro valyuta fondi moliyaviy va valyuta munosabatlarini to'liq va izchil nazorat qilish imkoniyatiga ega emas. Masalan xalqaro valyuta bozorlari tizimining yangi ko'rinishi FOREX tizimini nazorat qilish juda mushkul. Bu bozorni tartibga solib bo'lmaydi deyish ham mumkin. Bu bozorning malum manzilda

joylashmagani qolaversa u butun kun davomida faoliyat olib borishi unda bo'layotgan operatsiyalarni nazorat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Fikrimizcha, jahon moliya bozori tushunchasiga uslubiy yondashuv ushbu tushunchani bir tomondan izohlashning iloji bo'lmaganligi tufayli, ko'p o'lchamliligini tushunishga asoslanishi kerak. Hatto eng asosiy tushuncha ham bir necha omillarni – bozorda yuzaga keluvchi munosabatlarning iqtisodiy mohiyati, unda aylanuvchi moliya aktivlari, bozorda bitimlarni amalga oshiruvchi sub'ektlar, shuningdek, ularning jahon iqtisodiyotidagi ahamiyatini rad etishi mumkin. Shuning uchun turli mualliflarning jahon moliya bozori tushunchasiga tahlil etilgan yondashuvlaridan o'zaro to'ldiruvchi sifatida foydalanish mumkin.

Jahon moliya bozori rivojlanishining geografik tuzilishi tahlili rivojlangan mamlakatlarning ustunligini ko'rsatadi. Shimoliy Amerika mamlakatlari (AQSh va Kanada), Evropa Ittifoqi mamlakatlari va Yaponiya umumanjahon bozorining uchdan bir qismini egallaydi.

So'nggi yillarda globallashuv jarayoni dunyo taraqqiyotining istiqboldagi rivojini belgilab beruvchi asosiy omillardan biriga aylandi. Bugungi kunda har qanday davlat o'zining tashqi va ichki siyosatini belgilashda bevosita ushbu jarayonning namoyon bo'lishi va u keltirib chiqarayotgan oqibatlarni inobatga olishga majbur bo'lmoqda. Barchaga ma'lumki, pul iqtisodiyotning asosiy dastaklaridan biri hisoblanadi va ma'lum ma'noda iqtisodiyotni boshqarib turuvchi kuchlardan biri sanaladi.

Milliy valyuta — muayyan davlat (davlat markaziy banki) tomonidan chiqariladigan valyuta. Birinchi navbatda mamlakat hududida, quvvati va holatiga qarab tashqi savdo va xalqaro hisobkitob ishlarida qo'llaniladi

Valyutani tartibga solish — xalqaro hisob kitoblar va valyuta boyliklari bilan bog'liq bitimlarni amalga oshirishni reglamentatsiya qilishga qaratilgan davlatning faoliyati. „Valyutani tartibga solish to'g'risida“gi O'zR Qonunining 10-moddasiga muvofiq, O'zR Markaziy banki O'zRda valyutani tartibga soluvchi davlat organidir. Valyutani tartibga soluvchi davlat organi o'z vakolatlari doirasida:

- O'zRda chet el valyutasining hamda chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarining muomalasi tartibini belgilaydi;
- milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursini aniqlash mexanizmini belgilaydi;
- O'zR hududidagi banklarda norezidentalar tomonidan chet el valyutasida hisobvaraqlar ochish va ularni yuritish tartibini belgilaydi;
- rezident yuridik shaxslar tomonidan O'zRdan tashqaridagi banklarda hisobvaraqlar ochish tartibini belgilaydi.

Milliy valyuta-muayyan davlatning valyutasidir (so'm, dollar, yevro, rubl va boshqalar). Mazkur davlat hududida foydalanish maqsadida Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqariladi;

Xorijiy valyuta –xorijiy davlatlarda muomalada bo'lgan va qonuniy to'lov vositasi hisoblangan valyutalar, shuningdek, kreditlash va to'lovlarni amalga oshirish vositalari (banknotalar, g'azna biletleri, tangalar, cheklar, veksellar);

Jamoaviy valyuta-bu ma'lum bir davlatlar guruhi va xalqaro tashkilotlar tomonidan moliyaviy amaliyotlarni amalga oshirish uchunfoydalaniladigan valyutadir. Masalan, 1999 yilning 1 yanvarida Yevropa Ittifoqi (EI) davlatlari yagona valyuta –Yevroni naqdsiz shaklda, 2002 yilning 1 yanvaridan esa banknotalar va tangalar ko'rinishida muomalaga kiritdilar.Qanday turdagi konvertatsiyamavjud:

Erkin konvertatsiya boladigan–boshqa valyutalarga almashtirish jarayonida hech qanday cheklovlar mavjud bo'lmagan valyuta. Bu kabi valyutalarga egalik qiluvchi davlatlar ushbu valyutalar bilan amaliyotlarni bajarishga hech qanday to'siqlar qo'ymaydi.

Bunday valyutalarga AQSh dollari, yevro, Shveysariya franki, Britaniya funti, Yaponiya yenasi va boshqalar kiradi.konvertatsiya bo'lmaydigan valyuta-mamlakat hukumati tomonidan valyutalarni sotish va sotib olishga yoki boshqa operatsiyalarni amalga oshirishga cheklovlar o'rnatilgan bo'ladi. Bu Shimoliy Koreya voni va Kuba pesolaridir.

Bunday pullar muomalasiga faqat mamlakat ichida ruxsat etiladi.Qisman konvertatsiya bo'ladigan valyuta–bular emitent mamlakatdan tashqarida muomalasi cheklangan milliy banknotalardir.

Masalan, O'zbekistonda so'm qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi. Mamlakat tashqarisida esa so'mni ayirboshlash bo'yicha cheklovlar mavjud bo'lib, faqat ayrim xorijiy valyutalarga ayirboshlanishi mumkin.

Masalan, bir kishi Malayziyaga safar qilmoqchi va uning Malayziya ringitiga almashtirmoqchi bo'lgan ma'lum miqdordagi ozbek somi bor, lekin Malayziyaning valyutasi kamyob valyuta bo'lib, uni banklarda sotib olish imkoniyati yo'q.

Buning uchun o'zbek so'mini, masalan, AQSh dollariga almashtirish kerak. Malayziyaga kelgach, erkin almashtiriladigan valyuta bo'lgan dollarlarni Malayziya ringitiga bemalol almashtirish mumkin. Bu holat qisman konvertatsiya qilinadigan valyutalarni ayirboshlashga misol bo'la oladi.

Valyuta kotirovkasi nima?

Respublikada milliy valyutani mustahkamlash ishida so'mning harid quvvatini oshirib borish va uning barqarorligini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi. Bunga bozorni raqobatdosh mahsulotlar bilan to'ldirish va zarur ehtiyojlar hosil qilish orqali erishiladi. Bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirishda milliy ishlab chiqarishni imkoni boricha kengaytirib boorish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki shu orqali iste'mol mollari sotishning umumiy hajmida milliy mahsulotlar hissasi oshib boradi. Bu yerda shuni ta'kidlab o'tish zarurki, milliy ishlab chiqarishni kengaytirish orqali so'mning barqarorligini ta'minlash chetdan mahsulot keltirishni inkor qilmaydi. Aholini sifatli chet el mollari bilan ta'minlash maqsadida import ham rag'batlantirib boriladi.

So'mning barqaror amal qilishi, uning har qanday valyutaga erkin almashilishi yetarli valyuta zaxirasi bo'lishiga bog'liq. Unga erishishda korxonalar va barcha sub'yektlarning, jahon bozoriga raqobatga bardosh beradigan mahsulot ishlab chiqarishi uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi omillarni vujudga keltirish alohida ahamiyatga ega.

So'mning barqarorligini ta'minlashda undan oqilona va tejab tergap foydalanish, ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larning eng ko'p samara berishiga, olingan kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishiga erishish muhim o'rin tutadi.

Inflyatsiyaga qarshi aniq o'ylangan siyosat o'tkazish milliy valyutani mustahkamlashning muhim shartlaridan biridir. Bu siyosat eng avvalo inflyatsiya darajasini keskin kamaytirishga qaratilishi lozim. Bunda pulning qadrsizlanish darajasi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda unga qarshi samarali tadbirlar qo'llash hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur'atni tanlashga erishiladi.

Respublikamizda milliy valyutani rivojlantirish va barqarorlashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni quyidagi jadval orqali ham ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasida so'mni erkin ayirboshlanadigan valyutaga nisbatan ayirboshlash hajmi (mlrd. AQSH dollarida):

konvertatsiya qilish tizimi birinchi navbatda xalq iste'moli mahsulotlari va eksportbop tovarlarni ishlab chiqarish bilan shuq'ullanuvchi, iqtisodiqtning asosiy va etakchi ob'ektlarin realizatsiya qilish bilan boq'liq, xorijiy investorlarning foydasining bir qismi va dividendlarini repatriatsiyasi bilan shuq'ullanuvchi korxonalarning (xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ham shular jumlasidan) ehtiqljini qondirishga yo'naltirilgan.

Inflaytsiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun molar yetarli bo'lmagan holda aholi qo'lida pulning ortiqcha ko'payib ketishi inflyatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Shu orqali pulning qadrsizlanishida maqbul sur'atni tanlashga erishiladi.

Inflatsiyaga qarshi siyosat negizini pul miqdorining o'sishini tovarlar va xizmatlar miqdorining tegishli darajada o'sishi bilan bog'lab olib borishga qaratilgan tadbirlar tashkil qilish zarur. Chunki xarid qilish uchun molar yetarli bo'lmagan holda aholi qo'lida pulning ortiqcha ko'payib ketishi inflatsiyaning yanada avj olib ketishiga sabab bo'ladi. Pul miqdori bilan birga narxlarning ham tobora o'sib borishi muqarrar ravishda, uzoq davom etadigan giperinflatsiyani keltirib chiqaradi. Bu, o'z navbatida, milliy ishlab chiqarishning izdan chiqishi, aholi keng tabaqalarining qashshoqlashishi va butun ijtimoiy tizimning barbod bo'lishi xavfini tug'diradi. Tovarlal taqchilligi mavjud bo'lib turgan hozirgi bosqichda giperinflatsiyaning oldini olish uchun aholi iste'mol fondining o'sishini ishlab chiqariladigan mahsulot, ko'rsatiladigan xizmatning

moddiy hajmi ko'payishiga bevosita bog'liq qilib qo'yish zarur bo'ladi. Ichki bozorni mollar va xizmatlar bilan to'ldirish, muomalaga o'rinsiz ortiqcha pul chiqarilishiga yo'l qo'ymaslik, milliy valuta barqarorligini ta'minlash va xalq turmush darajasini o'stirishning muhim shartidir. So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Bunda muomalaga chiqarilgan pul miqdorining o'z vaqtida qaytarilishiga erishish, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi ta'minlamagan korxonalarga kreditlar berilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishi kerak. Inflatsiyani pasaytiruvchi qudratli omil milliy valuta almashuv kursining barqarorlashuviga erishishdir. Bu, o'z navbatida, import narxlarining barqarorlashuviga olib keladiki, natijada ichki bozordagi narxlar o'zgaradi. Valuta birjalarida valuta operatsiyalarining barcha turlari uchun talab va taklif natijasida shakllanadigan yagona almashuv kursini belgilash, valuta kursi barqarorligiga erishishning dastlabki shartidir. Milliy valuta kursi barqarorligini ta'minlashning navbatdagi sharti dastlabki bosqichda valutani naqd pulsiz almashtirish hajmini ko'paytirishga ustunlik berishdir. Istiqbolda esa bu sohadagi siyosat banklararo valuta birjasidagi oborot miqdorini korxona va fuqarolar o'z pulini xohlagan miqdorda xohlagan valutaga erkin almashtirish imkoniyatini beradigan darajaga yetkazishga qaratiladi. Shunday qilib, yuqorida qarab chiqilgan chora va tadbirlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi milliy valutamiz almashuv kursining barqarorlashuviga, uning xarid qilish quvvatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatimizda o'tkazilayotgan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalaridagi islohotlardan ham asosiy ko'zlangan maqsad barcha o'zgarishlarning natijasi va belgisi milliy valutamiz – so'mimizni mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich jahonning kuchli valutilari bilan konvertatsiyalashga, ya'ni erkin almashuviga erishishdir.

Pulning baquvvatligiga erishishga qaratilgan davlat dasturlari

- ichki bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish;
- davlat xarajatlarini keskin qisqartirish, qat'iy moliya, bank-kredit siyosatini o'tkazish;
- eksport imkoniyatlarini keskin kuchaytirish;
- ortiqcha pul emissiyasiga, ya'ni pul bilan ta'minlanmagan ortiqcha pul muomalada bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. Pulning qadrini mustahkamlashni ta'minlashning vositalari:
- mamlakatning oltin zaxirasi bilan;
- mamlakatning butun boyligi bilan;
- tovar massasining hajmi va tarkibi orqali;
- talab va taklif o'rtasidagi nisbatni tartibga solish orqali;
- narx-navoni tartiblash orqali;
- pul muomalasi qonunidan foydalanish orqali.

XULOSA

So'mning barqarorligini ta'minlashda naqd pul emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega. Bunda muomilaga chiqarilgan pul miqdorining o'zvaqtida qaytarilishiga erishishi, mahsulot ishlab chiqarishning o'sishini ta'minlamagan korxonalarga kreditlar berilishig yo'l qo'ymaslik choralari ko'rilishi kerak. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni doirasida Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tashkil etildi.

Davlat tijorat Xalq bankidan tashqari, respublikamiz hududida o'z faoliyatini olib boruvchi barcha banklar unga a'zo bo'ldi. Ishonchlilik, xizmat ko'rsatishning yuqori sifati, barcha mijozlar bilan o'zaro sheriklik munosabatlari O'zbekiston banklari faoliyatida asosiy prinsiplarga aylana bordi. Bank tizimi faoliyatining institutsional asoslari takomillashtirildi. Bank sektorini liberallashtirish va isloh qilishni ko'zda tutib qabul qilingan dasturiy hujjatlar uning samaradorligini oshirishni oldindan belgilab berdi.

Mazkur hujjatlar zamirida bank faoliyatini liberallashtirish jarayonining tizimli va bosqichma-bosqichlik tamoyillari yotadi. Ushbu tamoyillarga amal qilish aholining mamlakat banklariga nisbatan ishonchini yanada mustahkamlash imkonini berdi. Bunday yondashuv, shubhasiz, barqaror va ishonchli bank tizimini tashkil qilish jarayonida ulkan yutuqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1 . O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T. "O'zbekiston", 2000 yil 2. I.Karimov "O'zbekiston: iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish yo'lida". T."O'zbekiston" 1995 yil

3. "Bozor, pul va kredit" jurnali.

4.Bank axborotnomasi" gazetasi

5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.: "O'zbekiston", 2000,

6. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T., «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2009. – 245 b.

7. D. Tojiboyeva, Iqtisodiyot nazariyasi(darslik) – T.: "Iqtisod moliya" 2005.

8. Razzoqov A., Toshmatov SH., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik (lotin yozuvida). - T. "Iqtisod-moliya", 2007

9. Shodmonov SH., G'afurov U. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni. – T.: TDIU, 2009.